



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 564 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari .....	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri .....	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari .....	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life .....	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari.....	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari .....	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish .....	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash .....	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi .....	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений .....	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения .....	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari .....	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENTS
	Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
	<a href="#">Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</a>	
	O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	378
	<a href="#">Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</a>	
	Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
	<a href="#">Alibayev Sobir Xolboyevich</a>	
	Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish .....	386
	<a href="#">Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</a>	
	Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari .....	389
	<a href="#">Artikbayeva Aziza Abror qizi</a>	
	The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study .....	392
	<a href="#">Ataniyazova Sohiba Xamidovna</a>	
	Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
	<a href="#">Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</a>	
	Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training .....	400
	<a href="#">Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</a>	
	Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari .....	404
	<a href="#">Imomov Asliddin Abdurazzoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</a>	
	Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
	<a href="#">Жураев Илхом Исхокович</a>	
	Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	413
	<a href="#">Kamalova Dilobar Tairovna</a>	
	Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
	<a href="#">Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</a>	
	Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
	<a href="#">Erdanova Zamira Olimovna</a>	
	Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
	<a href="#">Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</a>	
	Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
	<a href="#">Omonova Mohiniso Maqsud qizi</a>	
	Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
	<a href="#">Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</a>	
	Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
	<a href="#">Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</a>	
	Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods.....	443
	<a href="#">Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</a>	
	Анализ современных подходов и их недостатков к совершенствованию методов повышения пропускной способности в разветвлённых оптических сетях связи .....	447
	<a href="#">Киямов Рахматулло Рузиевич</a>	
	Психологические механизмы профилактики противоправного поведения несовершеннолетних (на примере Республики Казахстан) .....	452
	<a href="#">Тайтелиева Ақтолқын Битуқызы</a>	
	Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning stressga bardoshlilikini rivojlantirishning pedagogik modeli .....	459
	<a href="#">Islamova Fotima Shamsiddinovna, Aliqulova Nilufar Jumanazar qizi</a>	
	The Importance of Developing an Exercise Complex for Preparing Para Armwrestlers for Competition.....	463
	<a href="#">Karimov Faxriddin Xurramovich</a>	



Loyiha asosidagi ta'limda portfolio va baholash rubrikalari tizimi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani monitoring qilish.....	467
<b>Maxmudova Zulxumor Alim qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli .....	472
<b>Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna</b>	
Methods for Developing Labor Productivity Through Increasing the Physical Activity of Enterprise and Organization Employees .....	477
<b>Muxametov Axmad Muxametovich</b>	
Developing Learner Autonomy Through Peer and Self-Assessment In EFL Classrooms.....	481
<b>Rakhmonova Nodirakhon Mukhammadjonovna</b>	
Oilaviy muhitning bolalar shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta'siri .....	488
<b>Xidoyatova Layli To'xtasinovna, Xursanova Mashhura Bobir qizi</b>	
Tarbiyasi og'ir o'smirlarda ijtimoiy adaptatsiya va shaxslararo munosabatlar xususiyatlari.....	493
<b>Elov Ziyodulla Sttorovich, Muxammadiyeva Gavhar Sirojiddin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy masalalari va pedagogik shartlari.....	499
<b>Nasriddinova Nasiba Alimjonovna</b>	
Ingliz va o'zbek lug'atlarida frazeologik birliklarning berilishi va lug'atlardagi muammolar .....	505
<b>Oqboyeva Zulfiya Bobonazarovna</b>	
Gamifikatsiya texnologiyasi asosida talabalarning o'quv motivatsiyasini rivojlantirish .....	510
<b>Yuldashev Sardarxon Rashitxon o'g'li, Sattarova Maftuna Ravshan qizi</b>	
Argumentativ tuzilmalar va sintaktik modellar: aktiv/passiv konstruksiyalar va nominalizatsiya hodisasi .....	513
<b>Utupova Oysapar Urazmatovna</b>	
Yoshlarni sog'lomlashtirish jarayonida milliy va xalq o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari...	516
<b>Axmedov Gayratjon Kosimovich</b>	
Introduksiya sharoitida dorivor valeriana ( <i>Valeriana officinalis</i> L.) ning suv rejimi, biokimyoviy tarkibi va ildiz hosildorligi .....	522
<b>Xamrayev Rashid Ravshan o'g'li, Omonova Dildora Uchqun qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari.....	527
<b>Go'zal Qurbonova</b>	
Shaxmat mashg'ulotlari orqali talabalarda tafakkur va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish .....	532
<b>Kulboyev Nodirjon Salaydinovich</b>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasiga oid G'arb pedagogik tafakkurining ilmiy-nazariy asoslari .....	535
<b>Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li</b>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda TIMSS yondoshuvining ahamiyati.....	539
<b>Xoldorova Shahnoza Ismatjon qizi</b>	
Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish .....	544
<b>Barotova Gulhayo Farhod qizi</b>	
Uy ta'limidagi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va ta'lim sifati monitoringi tahlili.....	548
<b>Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna, Pulatova Gulnoza Murodilovna</b>	
O'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari .....	554
<b>Muhammadiyev Javlon Hayitboyevich</b>	
Muammoli ta'lim asosida o'quvchilarda geografik bilimlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	558
<b>Yovqochev Furqat Ulug'bek o'g'li</b>	
Geografiya ta'limida 4k ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion usullari.....	561
<b>Yuldasheva Oyjamol Davronbek qizi</b>	

# UY TA'LIMIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARINNG IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVI VA TA'LIM SIFATI MONITORINGI TAHLILI

Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti, "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Pulatova Gulnoza Murodilovna

Farg'ona Davlat Universiteti, "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uy ta'limida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim sifatini psixologik monitoring qilish va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvi masalalari tadqiq etilgan. Farg'ona vodiysi misolida 42 nafar ota-ona o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida bolaning ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy izolyatsiya fenomeni va ota-onalarning psixologik kompetentsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida uy ta'limi samaradorligini oshirish va bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlash bo'yicha "Psixologik regeneratsiya modeli" va ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** uy ta'limi, imkoniyati cheklangan bolalar, psixologik monitoring, ijtimoiy-psixologik moslashuv, ijtimoiy izolyatsiya (yakkalanish), ota-onalarning psixologik kompetentligi, psixologik rivojlanish, ta'lim sifati, ijtimoiylashuv, "Psixologik regeneratsiya modeli".

**Abstract:** This article examines the psychological monitoring of educational quality and the issues of socio-psychological adaptation among children with disabilities receiving home-based education. Based on the results of a survey conducted among 42 parents in the Fergana Valley, the study analyzes children's psychological development, the phenomenon of social isolation, and the psychological competence of parents. Drawing on the research findings, the article proposes a "Psychological Regeneration Model" along with scientific and practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of home-based education and promoting the socialization of children.

**Key words:** home-based education, children with disabilities, psychological monitoring, socio-psychological adaptation, social isolation, parental psychological competence, psychological development, educational quality, socialization, Psychological Regeneration Model.

**Аннотация:** В данной статье исследуются вопросы психологического мониторинга качества образования и социально-психологической адаптации детей с ограниченными возможностями, обучающихся на дому. На основе результатов анкетирования 42 родителей в Ферганской долине проведён анализ психического развития детей, феномена социальной изоляции и психологической компетентности родителей. По итогам исследования предложены "Модель психологической регенерации", а также научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности домашнего обучения и обеспечение социальной интеграции детей.

**Ключевые слова:** домашнее обучение, дети с ограниченными возможностями, психологический мониторинг, социально-психологическая адаптация, социальная изоляция, психологическая компетентность родителей, психическое развитие, качество образования, социализация, "Модель психологической регенерации".

## KIRISH

Zamonaviy psixologiya va pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri - inklyuziv jamiyat barpo etish va imkoniyati cheklangan bolalarning hayot sifatini yaxshilashdan iborat. Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi xalqaro huquq normalari bilan kafolatlangan bo'lib, mazkur sohada davlatlar zimmasiga aniq majburiyatlar yuklaydi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiya (2006 yil)da har bir nogiron bolaning kamsitishsiz, teng va sifatli ta'lim olish huquqi mustahkamlangan. Konventsiyaning 24-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ta'lim jarayonini bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirish, shuningdek, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash choralarini ko'rish shart.

Uy ta'limi – bu shunchaki maktab dasturini uy sharoitida o'zlashtirish emas, balki murakkab psixologik jarayondir. Uy ta'limidagi bolaning ijtimoiy-psixologik moslashuvi uning shaxsiy "Men"ini shakllantirish va ijtimoiy deprivatsiya (aloqalar yetishmovchiligi) natijasida yuzaga keladigan salbiy ruhiy holatlarni korrektsiya qilishni



talab etadi. Rasmiy statistikaga ko'ra, respublikamizda 10 000 dan ortiq bola uy ta'limiga jalb qilingan. Ushbu kontingentning psixologik salomatligi va ta'lim sifati doimiy monitoringni talab qiluvchi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy ta'limi masalasi so'nggi yillarda pedagogika, maxsus pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarning uy sharoitida ta'lim olishi nafaqat akademik bilimlarni egallash, balki ularning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi.

Shaxs rivojlanishining ijtimoiy omillarga bog'liqligi masalasi bir qator klassik psixologlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, L.S. Vygotskiy bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. Olimning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, bola rivojlanishida kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli uy ta'limida muloqot imkoniyatlarining cheklanishi bolaning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.<sup>[17,43]</sup>

A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynlarning faoliyat nazariyasida shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida faoliyat va ijtimoiy munosabatlar tizimi e'tirof etiladi. Uy ta'limi sharoitida bolaning ijtimoiy faoliyat doirasi torayishi uning kommunikativ ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etishi mumkinligi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan.

Ijtimoiy deprivatsiya muammosi xorijiy olimlardan J. Bowlby, R. Spitz hamda E. Erikson tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, bolalik davrida yetarli darajadagi ijtimoiy va emotsional aloqalarning mavjud bo'lmashligi xavotir, o'ziga ishonchsizlik, kommunikativ qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuvning sustlashuviga olib kelishi mumkin. Uy ta'limida tahsil olayotgan bolalarda ham bunday xavf omillari uchrashi ehtimoli mavjud.

“O'rganib qolgan chorasizlik” (learned helplessness) fenomeni amerikalik psixolog M. Seligman tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, uzoq davom etuvchi cheklovlar va muvaffaqiyatsizlik hissi insonda passivlik hamda o'z imkoniyatlariga ishonchsizlikni shakllantirishi mumkinligini ko'rsatadi. Imkoniyati cheklangan bolalarda mazkur holatning oldini olish uchun muntazam psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsion muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.<sup>[13,106]</sup>

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishi va ijtimoiy moslashuvi masalalari o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularning ta'lim olish huquqlarini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Biroq uy ta'limida tahsil olayotgan bolalarning psixologik holatini tizimli monitoring qilish, ularning ijtimoiylashuv darajasini baholash hamda ota-onalarning psixologik kompetentligini rivojlantirish masalalari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot uy ta'limida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim sifati va ijtimoiy-psixologik moslashuv xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Farg'ona vodiysi hududida istiqomat qiluvchi hamda farandlari uy ta'limiga jalb etilgan 42 nafar ota-ona ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotda ijtimoiy-psixologik so'rov, kuzatish va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.


Ma'lumotlarni yig'ish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma qo'llanildi. So'rovnoma 10 ta asosiy yo'nalishni qamrab olib, respondentlarning demografik ko'rsatkichlari, bolaning yoshi va sog'lig'i holati, uy ta'limining tashkil etilish darajasi, ta'lim resurslari bilan ta'minlanganligi, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari, bolaning tengdoshlari bilan muloqot darajasi, ijtimoiy faolligi, emotsional holati hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik kompetentligiga oid savollarni o'z ichiga oldi.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, uy ta'limi sharoitida bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Shuningdek, ota-onalarning farzand ta'limi va tarbiyasidagi ishtiroki, mavjud muammolar hamda ehtiyojlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida uy ta'limi tizimida psixologik monitoringni takomillashtirish, bolalarning ijtimoiylashuvini kuchaytirish va ota-onalarning psixologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Tadqiqotda qatnashgan 42 nafar ota-onaning javoblariga ko'ra, uy ta'limida tahsil olayotgan bolalarning yosh toifasi quyidagicha taqsimlangan: 40,5 foizi – 14-17 yoshli o'smirlar. Bu davr psixologiyada “inqiroz davri” deb atalib, bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji eng yuqori nuqtaga chiqadi.

Savol: Bolangizning yoshi?



2-savol: Bolangizda qaysi turdagi nogironlik bor?

Tadqiqotda ishtirok etgan ota-onalar farzandlarida turli xil nogironlik turlari mavjudligini qayd etgan. Ular quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi: Tayanch-harakat (21,4%), nutq nuqsoni (16,7%) va intellektual rivojlanishdagi orqada qolish (16,7%). Har bir guruh o'ziga xos individual-psixologik yondashuvni talab etadi.




3-savol: Darslar bolangizga tushunarlimi?

So'rovnomada ota-onalarning 11% darslar mutlaqo tushinarsiz ekanligini, 47% i esa qisman tushunarligini, 42% i to'liq tushunarli ekanligini qayd etgan. Bu ko'rsatkich o'qituvchilarning maxsus (korreksion) pedagogika va psixologiya sohasidagi bilimlari yetarli emasligini ko'rsatadi. Bola o'ziga berilayotgan ma'lumotni anglay olmasa, unda "o'rganishdan voz kechish" fenomeni shakllanadi – bola o'z kuchiga ishonmay qo'yadi.




## Darslar bolangizga tushunarlimi?



### 4-savol: Qo'llanma va resurslar yetarlimi?

Ota onalari 27% i darsliklar bilan to'liq ta'minlanmaganlikni va qo'shimcha adabiyotlarga ehtiyoj borligini aytishgan. Psixologiyada vizual va taktil materiallar (ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar uchun) kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Resurslarning yetishmasligi ta'limni quruq ma'ruzaga aylantirib qo'yadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, uy ta'limida bolalar uchun zarur o'quv materiallari va resurslar yetarli emas. Ayniqsa, maxsus qo'llanmalar (brayl alifbosi, audio-materiallar, ishora tili qo'llanmalari) hamda fanlarni moslashtirilgan tarzda o'qitish uchun kerakli metodik resurslar deyarli yo'q


## Qo'llanma va resurslar yetarlimi?



### 5-savol: Uy ta'limi sifatini yaxshilash uchun qaysi yo'nalishlarda ish olib borish kerak deb hisoblaysiz?

Uy ta'limi sifatini oshirish uchun davlat, mahalliy tashkilotlar va nodavlat NNTlar hamkorligida kompleks dastur ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturda pedagoglarning malakasi, metodik resurslar, psixologik xizmatlar va zamonaviy texnologiyalar alohida o'rin egallashi shart.

## Ta'lim jarayonida qaysi muammolarni kuzatyapsiz? (Bir nechtasini tanlang)



6-savol: Ta'lim jarayonida qaysi muammolarni kuzatyapsiz?

Ota-onalarning javoblari turli, bir nechta muammolarni qamrab olgan. Asosiylari quyidagilar:

- O'qituvchi yetishmasligi** – uy ta'limida eng ko'p uchraydigan muammo. Ayrim bolalarga umuman dars o'tilmasligi yoki juda kam o'tilmoqda.
- Qo'llanmalar yo'qligi** – maxsus adabiyotlar, moslashtirilgan darsliklar va texnik vositalar taqchil.
- Darslar sifatsizligi** – o'qituvchilarda metodik tayyorgarlik yetarli emas, ayrim fanlar yuzaki o'tiladi.
- Bolaning ehtiyojlari hisobga olinmasligi** – individual yondashuv amalda to'liq ta'minlanmagan.
- Maqsadli monitoring yo'qligi** – ta'lim jarayoni ustidan nazorat va baholash mexanizmlari samarali ishlaymayapti.
- Ota-onalarda metodik bilim yo'qligi** – ko'p hollarda ota-onalar bolalariga o'quv jarayonida ko'makchi bo'lishga majbur, ammo ularning o'zida pedagogik bilim yo'q.
- Bolaga yetarli e'tibor bermaslik** – ayrim holatlarda o'qituvchilar mas'uliyatsizlik qiladi.
- Kitoblar va resurslar yetarli emasligi** – qo'shimcha adabiyotlar bilan ta'minlanmagan.
- Moliyaviy muammolar** – subsidiya yoki davlat tomonidan beriladigan yordam ham ayrim hollarda o'z vaqtida yetkazib berilmaydi.

Ota-onalar ta'kidlagan muammolar uy ta'limida tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Bu nafaqat o'quv jarayoni sifatini pasaytiradi, balki bolalarning ijtimoiy hayotga to'liq qo'shilishiga ham to'sqinlik qiladi.

- Uy ta'limida asosiy e'tibor pedagoglar yetishmasligini bartaraf etish, resurslar bilan ta'minlash va individual yondashuvni kuchaytirishga qaratilmog'ilozim.
- Ota-onalar uchun maxsus metodik qo'llanmalar va treninglar tashkil etilishi shart.
- Davlat organlari tomonidan uy ta'limi jarayoni ustidan samarali monitoring va hisobot tizimi yo'lga qo'yilishi zarur.

Javoblardan ko'rinib turibdiki, uy ta'limida ota-onalar asosan moddiy-texnika bazani kuchaytirish, mutaxassislar ishtirokini ta'minlash va psixologik ko'makni yo'lga qo'yishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, fanlar soni va dars soatlarini ko'paytirish ham muhim ehtiyoj sifatida qayd etilgan. Uy ta'limi sifatini oshirish uchun faqat o'qituvchi tashrifini ko'paytirish yetarli emas. Bunda psixolog, logoped, defektologlarning ishtirokini ta'minlash, bolalarning qiziqishlariga mos qo'shimcha fanlar joriy etish, moddiy baza bilan ta'minlash zarur. Inklyuziv ta'lim elementlarini kiritish bolalarning ijtimoiylashuvi uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, uy ta'limi sifatini oshirishning quyidagi "Psixologik Regeneratsiya Modeli" taklif etiladi:

- Tizimli monitoring platformasini yaratish:** Har bir bolaning individual rivojlanish dinamikasini kuzatib boruvchi raqamli "Psixologik-pedagogik passport"ni joriy etish.
- "Mobil psixolog va defektolog" xizmati:** Uy ta'limidagi bolalarga faqat fan o'qituvchisi emas, balki har oyda kamida ikki marta professional psixolog tashrifini yo'lga qo'yish.
- Ota-onalar uchun "Madad" metodik portali:** Uy sharoitida bola bilan ishlashning psixologik usullarini o'rgatuvchi video-darslar va qo'llanmalar bazasini yaratish.
- Inklyuziv integratsiya:** Uy ta'limidagi bolalarni bayramlar, to'garaklar va maktab tadbirlariga onlayn yoki oflayn tarzda jalb qilish orqali ijtimoiy izolyatsiyani sindirish.

Xulosa qilib aytganda, uy ta'limi nafaqat ta'lim olishning muqobil shakli yoki mavjud sharoitdan kelib chiqadigan majburiy ehtiyoj, balki imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, uning ruhiy barqarorligini qo'llab-quvvatlash va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm hisoblanadi. Uy ta'limining asosiy maqsadi bolani faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki unda mustaqillik, o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Shu nuqtai nazardan, uy ta'limi jarayoni psixologik qonuniyatlar va bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Ta'lim jarayonida pedagog, psixolog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi, muntazam psixologik monitoring, korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat hamda bolaning ijtimoiylashuviga qaratilgan tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday yondashuv orqali ijtimoiy izolyatsiya, deprivatsiya va "o'rganib qolgan chorasizlik" kabi salbiy holatlarning oldini olish, bolaning psixologik farovonligini ta'minlash hamda uning jamiyatning to'laqonli va faol a'zosi sifatida shakllanishiga erishish mumkin.

Demak, uy ta'limining samaradorligi nafaqat akademik natijalar bilan, balki bolaning ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topish darajasi bilan ham baholanishi lozim. Bu esa uy ta'limi tizimini psixologik jihatdan boyitish, ilmiy asoslangan monitoring mexanizmlarini joriy etish va barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligini kuchaytirishni taqozo etadi. Natijada uy ta'limi imkoniyati cheklangan bolalar uchun nafaqat bilim manbai, balki ularning hayot sifatini oshiruvchi, kelajakka ishonchini mustahkamlovchi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim taraqqiyot omiliga aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
- O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
- Битянова М.Р. Практическая психология образования. – М.: Генезис, 2015.
- Florian L. The SAGE Handbook of Special Education. – London: SAGE Publications, 2014.
- Friend M. Special Education: Contemporary Perspectives for School Professionals. – Boston: Pearson, 2021.
- G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
- Heward W.L. Exceptional Children: An Introduction to Special Education. – New York: Pearson Education, 2018.
- Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
- Лубовский В.И. Специальная психология. – М.: Академия, 2005.
- Малофеев Н.Н. Специальное образование в России и за рубежом. – М.: Педагогика, 2012.
- Назарова Н.М. Специальная педагогика. – М.: Академия, 2010.
- Селигман М. Новая позитивная психология. – М.: София, 2006. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris: UNESCO, 2005.
- United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. – New York: UN, 2006.
- United Nations. Convention on the Rights of the Child. – New York: UN, 1989.
- Выготский Л.С. Основы дефектологии. – М.: Просвещение, 1983.
- Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. – М.: Эксмо, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.